

CHET TILLARINI O'RGANISHDA TEXNOLOGIYALAR VA RESURSLARDAN FOYDALANISH

Nuraliyeva Mashxura Odil qizi

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german fakulteti
ispan tili yo'naliishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Hozirgi kunda til o'rganishda ko'plab kitoblar, ilovalar va resurslar mavjud. Ushbu maqolada chet tillarini samarali va tez o'rganish uchun qo'llaniladigan foydali metodlar va vositalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: resurs, poliglossiya, axborot texnologiyalari, platforma, podcast, video, audio, tarjima metodi, to'g'ri metod, qiyosiy metod.

Til o'rganish sohasida chet tillarini o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan ona tilidan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, muvaffaqiyatli strategiyalar va texnologiyalarni qo'llashni taqazo etadi. Texnologiyali metodlardan foydalanishning bir qancha afzalliklari va salbiy jihatlari mavjud.

Hozirda xalqaro munosabatlar avj olgan zamonda ko'p tillarni bilish ya'ni poliglossiya (ko'ptillilik) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan Respublikamizda G'arbiy Yevropa va Sharq tillarini oliv ta'lim va o'rta ta'lim muassasalarida o'rgatilishi yo'lga qo'yilgan. Bu jarayonda bir xil metodlardan foydalanish til o'rganish sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Shu sababli tilshunos olimlar yangi til o'rganish unumdotligini oshirish uchun zamonaviy metodlar ustida ishlagan. Jumladan, chet til o'qitish metodikasi fanining asoschisi tilshunos olim, akademik Lev Vladimirovich Shcherba hamda uning shogirdlari va izdoshlari I.V.Raxmanov, V.S.Setlin, A.A.Mirolyubovlarning hissasi ulkandir. Ularning ta'kidlashicha, chet til o'qitishdagi ilg'or tajribalarni o'rganish umumlashtirish va yoyishdan ko'zlangan maqsad ijobiy natijalarini qo'lga kiritishdir. Ingliz yozuvchisi Dr.Andi tomonidan yozilgan "The Linguist's Guide to Language Learning" asarining asosiy mazmuni til o'rganishda ko'plab yondashuvlar, texnikalar va metodlar haqida ma'lumotlar beriladi. Bu kitobdagi strategiyalar orqali til o'rganishdagi murakkab jarayonlarni yengillashtirish mumkin.

Uzoq vaqt davomida tajriba va kuzatishlar tufayli paydo bo'lgan hozirgi kunda ommaviy qo'llanayotgan metodlar quyidagilardir :

Tarjima metodi. O'z nomi bilan aytilgan bu metod orqali o'rganilayotgan tildagi yangi so'zlarni tarjima qilish va yodlash mumkin. Bu metoddha grammatika muhim ro'l o'ynaydi. Ya'ni ma'lum grammatik formulalar boshqacha qilib aytganda retseptlar orqali so'zlardan to'g'ri gaplar hosil qilish va kundalik hayotda doimiy foydalanishdir.

To'g'ri metod. Yangi o'rganayotgan tilning madaniyati, an'analari, shakli va ijtimoiy kelib chiqishini chuqur o'rganuvchi metoddir. Bunda video qo'llanmalar, podcastlar, audio

va rasmi materiallardan foydalaniladi. Asosan, bu metod o'sha tilda so'zlashuvchilarining madaniyatini o'rghanishga yordam beradi.

Qiyosiy metod. O'zi muloqat qiladigan tili bilan boshqa tillarni solishtirish usulidir. Bu metod orqali noaniq bo'lgan tushunchalarni oson qiyoslab tushunish mumkin.

Shu o'rinda hozirda keng tarqalgan til o'qitish platformalarini ham ta'kidlab o'tsak bo'ladi. Masalan: Duolingo, Babbel, Memrise, Ted talk va boshqalar. Quyidagi ilovalarda chet tilini interaktiv o'yinlar va topshiriqlar orqali o'rghanish yo'lga qo'yilgan.

Duolingo: chet tilini boshlang'ich darajada o'rghanish uchun juda mukammal ilovadir. Unda har bir darsda yangi so'zlar, fe'llar va iboralar takrorlanadi. Bu lug'at boyligini oshirishga va grammatikani oson o'rghanishga yordam beradi.

Memrise: bu platformada chet tilini o'rghanish uchun vizual yodlash kartalari va testlari mavjud. Bu orqali yangi tilni samarali o'rghanadi, qo'shimchasiga talaffuz va tinglab tushunish qobiliyati tez rivojlanadi.

Ted talk: masofadan turib chet tilida muloqat qiladigan shaxslar bilan aloqa o'rnatish, fikr almashish uchun mo'ljallangan. Bu ilovani afzalligi shundaki, o'rghanayotgan tilini tabiiy so'zlashuvchilaridan o'rghanish mumkin va amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi.

Hamma narsaning salbiy tomoni bo'lganidek, zamonaviy platformalardan foydalanishning ham zararlari mavjud. Platformalar kompyuter yoki uyali aloqa vositalariga o'rnatilganligi sababli ulardan uzoq vaqt davomida uzliksiz foydalanish inson salomatligiga (ko'z nuri pasayishi, ortiqcha vazn yig'ish va boshqalar) zarar yetkazadi. Ammo hozirda zamon talabi shuni taqazo qilgani uchun ulardan inson salomatligiga salbiy ta'sir qiladigan omillarga qarshi chora ko'rgan holda foydalanish mumkin.

Xulosa o'rnida, zamonaviy va texnologiyali metodlar orqali til o'rghanish o'rghanuvchiga har tomonlama foya keltiradi. Shu bilan birga ular tili o'rghanilayotgan mamlakatlar madaniyati, sa'nati, tarixi, adabiyoti, urf-odatlari, an'analaridan voqif bo'lishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamol Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi" (ISBN 978-9943-02-498-4)
2. Saidumar Saidaliyev "Tilshunoslikka kirish"
3. L.V. Shcherba "Tilshunoslik nazariyasi"
4. Dilfuza Otamurodova, Umida Urinboyeva "Boshlang'ich ta'lim fanlarida samarali interaktiv metodlardan foydalanish"
5. Majidova R.U, I.E.Umirov, D.M.Xoliqova "Tilshunoslik fanidagi ma'ruzalar matni"